



мәселелерин психолог алымлардың мийнетлерине сүйенип анықлауды талап етеди.

Балалардың тил байлығын хәм мәдениаты сөйлеу өнликпелерин раўажландырыўдағы тийкарғы максет, олардың өз пикир хәм сезимлерин, ойларын еркин баянлап, жеткерип бериўге, қоршаған адамлар менен мүнәсибette болып, үрп-әдет дәстүрлерге сай еркин сөйлесип қарым-қатнаста болыўға үйретиўден ибарат.

Балалардың аўызеки жазба тилин өсириў ушын сөзлерди дурыс айтыў, сөзлик қорын байытыў, үйренілген сөзлерди, сөз дизбектери өз орны менен, орынлы жеринде қоллана билиў, бурын үйренген хәм жаңадан үйренген сөзлерден гәплерди дурыс дүзиў хәм қарақалпақ халқының сөйлеу этикетине сай мәдениатлы сөйлеу көнликпелерин қәлиплестириў, биринши гезекте, қара-қалпақ тили сабағында жүзеге асады. Бала өз пикирин, ишки сезимлерин тыңлаўшыға түсиникли етип баянлап жеткерийи ушын жетерли дәрежеде сөз байлығына ийе болып, қарақалпақ тилиниң грамматикалық қағыйдаларын, сөйлеу этикетлерин билиўи тийис. Сонын менен бирге, бала муғаллимниң жәрдемінде педагогикалық технологиялардан пайдаланса да жақсы болады, бунда муғаллим балаларға улыўма сораў береді хәм бул сораўға биргеликте жуўап излейди, мысалы бунда «Ақылы хужим», «Кластер», «Не ушын?», «Балық скелети» усаған метод хәм усыллардан пайдаланса болады. Бул арқалы балаларда пикирди тез айтыў, излениў көнликпелери хәм қәбилеттери раўажланады. Ал, балалардың мектепке шекемги хәм баслаўыш тәлим жасында алған билим, уқып хәм көнликпелери үлкен әҳмийетке ийе. Баланың тил байлығы, ой-өрисі, сөйлеу дәрежеси қаншама раўажланған болса, оның айтажақ гәпи де сондай дәрежеде түсиникли, мазмунлы, анық хәм раўшан болады.



• «Қандай?» перархиялық диаграммасы



«Балық скелети» схемасы

Солай етип, балаларға қарақалпақ тилин үйретиў барысында үзликсизлик хәм избе-излик принциптерин иске асырыўда хәр тәреплеме гармоникалық раўажланған, руўхый бай, жоқары эрудициялы, билимли, дәретийшилик пенен өз бетинше еркин пикир жүргизип ойлайтуғын, өз пикир хәм сезимлерин еркин айтып, қоршаған адамлар менен мүнәсибette түсип, қарым-қатнас жасап қәлеген темада сөйлесип кете беретугын инсанды қәлиплестириўге кең мүмкиншиликлер туўғызылады.

Әдебиятлар

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. -Т.: «Ўзбекистан», 1977.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. -М.: «Аспект Пресс», 1999.
3. Гальперин П.Я. Психология мышления и учения о поэтапном формировании умственных действий. //Исследования мышления в советской психологии. -М.: «Наука», 1966.
4. Жумашева Г.Х. Формирование основ культуры общения дошкольников в театрализованных играх. -Н.: «Билим», 1997.
5. Жумашева Г.Х. Теоретико-методические основы формирования навыков общения на каракалпакском языке. -Т.: «Фан», 2007.
6. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. Изд. МГУ. 1965.

РЕЗЮМЕ

Мақолада қарақалпақ тилида болаларнинг муомаласини шакллантиришда таълимнинг кетма-кетлик ва узлуксиз тамойиллари муаммосига бағашланған. Мақолада қарақалпақ халқи рухый дунёси, дунёкараши ҳақида болаларнинг нутқа ва фикрлашларини ривожлантиришда иккинчи тил сифатида ўрганишда таянч ва миллий ғоялар асосида таййорланған назарий ва услубий ишланмалар (қўлланмалар) зарурлиги ҳақида айтилади.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящается проблеме формирования навыков общения детей на каракалпакском языке на основе принципа преемственности и непрерывности образования. В статье раскрывается необходимость разработки теоретических и методических основ обучения второму языку с опорой на национальную идеологию независимости, активизацию речевой и мыслительной деятельности детей, приобщения их к духовным ценностям каракалпакского народа.

SUMMARY

The article is devoted to a problem of formation communication skills of children in the Karakalpak language on the basis of principle of succession and continuity of education. In the article it is emphasized the necessity of development of theoretical and methodical bases of teaching the second language with a support on national ideology of independence, activation of speech and intellectual activity of children, involving them to spiritual values of the Karakalpak people.

OLIIY TA'LIM O'QUV JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH - TA'LIMDA SIFAT SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING ASOSIY VOSITASI

I.R.Kamolov – dotsent
S.S.Kanatbayev – assistent
G.I.Sayfullayeva – magistrant
Navoiy davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: innovatsiya, innovatsion ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim, pedagog, pedagogik texnologiya, debat, to'lqin, zarra, Venn diagrammasi, Quyosh sistemasi, Yer sayyorasi, Merkuriy sayyorasi, Venera sayyorasi, portfolio, o'quv portfolio, natijalar portfoliosi, ishlar portfoliosi, taqrizlar portfoliosi, assesment.

Ключевые слова: инновация, инновационное образование, процесс образования, образование, педагог, педагогическая технология, дебят, волна, частица, Диаграмма Венна, солнечная система, планета Земля, планета Меркурий, планета Венера, портфолио, учебное портфолио, портфолио результатов, портфолио работ, портфолио рецензий, ассесмент.

Key words: innovation, innovation al education, process of education, education, teacher, pedagogical technology, debate, wave, particle, Venn Diagram, Solar system, planet Land, planet Mercury, planet Venus, portfolio, scholastic portfolio, portfolio of results, portfolio of works, portfolio of reviews, assesment.

Oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kun sayin oshib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan o'quv mashg'ulotlari egallanayotgan bilimlarni talabalar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. Professor-o'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab kursdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi. Ana shunday o'quv-tarbiya jarayonida talaba markaziy ishtirokchiga aylanib qoladi.

Pedagog-olimlar ko'p yillar davomida ta'lim tizimida: Nega o'qitamiz?, Nimani o'qitamiz?, Qanday o'qitamiz? savollariga javob izlash bilan bir qatorda Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? – degan savolga ham javob qidirdilar. Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish avvalo, mavjud innovatsion ta'lim texnologiyalarini tahlil etish, o'qitiladigan fanning mazmunini e'tiborga olgan holda uni qo'llash yuzasidan metodik ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etish bilan birgalikda professor-o'qituvchidan tayyorgarlik, innovatsion pedagogik faoliyatga moslik zaruratini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish zarurati biz quyidagilarda ko'ramiz:

Birinchidan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, innovatsion texnologiyalardan foydalanish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi;

Ikkinchidan, innovatsion va pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi;

Uchinchidan, innovatsion va pedagogik texnologiyalar professor-o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi;

To'rtinchidan, innovatsion va pedagogik texnologiyalar yangi vosita va axborot texnologiyalarining usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi [1].

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng innovatsiya boshqa sohalariga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. Ta'lim tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi misolida ko'rishimiz mumkin. Bu ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda;

2. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga Gendr pedagogikasi, Evristik pedagogika, Androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi;

3. O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

Oliy ta'lim o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'z oldida quyidagilarni vazifa qilib qo'yadi:

1. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish zarurati o'rganish;

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va maqbul texnologiyalarni tanlash;

3. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etishning zaruriy shartlarini belgilash;

4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari turlari va shakllarini ta'lim jarayoniga fan xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'llash;

5. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish holatini tahlil qilish.

Yuqorida qayd etilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish bo'lg'usi professor-o'qituvchilarni tayyorlash, xususan ularning metodik tayyorgarligiga zamin yaratadigan fanlarning o'qitish metodikasi kurslarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarurati keltirib chiqaradi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal qilish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan shaxslar kerak. Innovatsion ta'lim texnologiyasi va ularni ta'limga qo'llanishiga oid bilimlar, tajribalar talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion ta'lim texnologiyalar fizika va astronomiya fanlaridan o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilganda ancha yuqori samara berishi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan namunaviy darslarda kuzatildi va natijadorligi ko'lab-quvvatlandi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borilgan ma'ruza darslari natijalariga asoslanib, o'quv jarayoniga qo'llanilishi mumkin bo'lgan va yuqori samaralar beradigan usullar, ularning tashkil etilishi va joriy etish xususida to'xtalib o'tamiz: Masalan,

"Debat (Bahs)" metodi

Debat (Bahs) o'tkazish uchun o'rtaga biror muammo tanlanadi. Muammoga qarab talabalar 3 guruhga ajraladilar. (ha, yo'q, betaraf). Muammoga "ha" munosabatda bo'lganlar 1-guruh, "Yo'q" munosabatda bo'lganlar 2-guruh, "betaraflar" esa 3-guruh bo'ladilar. Navbat bilan o'z nuqtai nazarini aytib o'zini himoya qilishga 1 daqiqadan vaqt beriladi. Betaraflar ikkala guruh talabalarining fikrlarini tinglab o'z ixtiyorlari bilan "ha" yoki "yo'q" deganlar guruhlariga qo'shiladilar. Himoya davomida "ha" guruhidan "yo'q" guruhiga talabalar o'tishlari mumkin va aksincha. Debat 7÷10 daqiqa davom etishi mumkin (fikrlar bo'lsa, yana vaqt berish mumkin). Fizika fanining «Optika» bo'limidan «Yorug'likning to'lin va zarracha xossalari» mavzusini o'rgangandan so'ng quyidagi muammoni o'rtaga tashlab debat o'tkazdik. "Yorug'lik to'linmi?" degan savolga talabalar "ha" va "yo'q" deb munosabat bildirgandan so'ng, ularni ajratib olib, 2 ta guruh tashkil etdik. Betaraflar partada o'tirdilar. "ha" deb munosabat bildirganlar guruhiga "Spektr", "yo'q" deb munosabat bildirganlarga "Kvant" deb nom qo'ydik. O'z nuqtai nazarlarini aytib himoya qilish uchun navbat bilan guruhlar fikrlarini bildirdilar. Bu fikrlar quyidagicha edi:

Kvant guruhi: (1 talaba gapiradi) Yorug'lik zarrachadir. Yorug'likning to'g'ri chiziqli bo'ylab tarqalish qonunini eramizdan 300 yil oldin yashab o'tgan Yevklid o'z asarlarida yozib qoldirgan.

Spektr guruhidan 1 talaba yorug'lik to'lin, chunki u quyosh va yulduzlardan bizgacha yetib keladi. Yorug'likning tarqalish vaqti mavjud. 1676 yilda mashhur daniyalik olim Reomer yorug'lik tezligini o'lchadi. Zarracha hech qachon 300000 km/s tezlik bilan harakatlanishini tasavvur qilganmisiz?

Kvant guruhi: Yorug'lik zarrachadir. Uning sinish hodisasi eramizdan 350 yil oldin yashagan Aristotelga yam ma'lum bo'lgan.

Vatandoshlarimiz Beruniy, Ibn Sinolar yorug'likning sinishi natijasida 7 xil spektrga ajralishini kamalak hodisasining sababini tushuntirganda aytganlar. "Yomg'ir yog'ayotgan ayni bir paytda quyosh charaqlab tursa, yorug'lik nuri yomg'ir tomchisidan sinib o'tadi va kamalak hodisasi sodir bo'ladi."

Kvant guruhi: yana biri, Yorug'lik zarrachadir. Uning zarra ekanligini yorug'likning nurlanishi va yutilishi kabi hodisalar tasdiqlaydi. Bu hodisalar sababini tushuntirish uchun zarracha – korpuskular nazariyani qo'llashga majbur bo'lasiz. Buni qanday tushuntirmoqchisiz?

Spektr: Yorug'lik to'lin. Yorug'likning monoxromatik manbalari, lazerlar yaratilishi uning to'lin ekanligini tasdiqlaydi.

Kvant: Yorug'lik zarrachadir. 1960 yilda yorug'likning monoxromatik manbalari lazerlar yaratildi. Lazer yorug'likning zarracha ekanligi tasdiqlaydi.

Spektr guruhi: Yorug'lik to'lin. Reomer tomonidan yorug'lik tezligi aniqlangandan so'ng, Nyuton zamondoshi Gyuygens yorug'likni to'lin deb qarashni taklif qildi, lekin u to'linning mazmunini ochib bera olmasda, yorug'lik impulsining yo'nalishini ko'rsatadigan prinsipni ochib berdi.

Kvant guruhi: Yorug'lik zarrachadir, uning sinish hodisasi eramizdan 350 yil oldin yashagan Aristotelga ma'lum bo'lganligini yana bir marta ta'kidlab, buyuk ingliz olimi Isaak Nyuton yorug'likni quyosh tanasidan ketma-ket chiqib kelayotgan yorug'lik zarralarining oqimi deb qarab, bu zarralarning tarqalish harakatini to'g'ri chiziqli deb hisoblaydi. Bu ta'limot Nyutonning korpuskulyar nazariyasi deb ataladi.

Spektr: 1802 yilda ingliz fizigi Yung yorug'likning interferensiya hodisasini tajribada o'rgandi. 1815 yilda Gyuygens prinsipini Frenel to'ldirdi.

Kvant guruhi: Yorug'lik zarrachadir 1887-1888 yillarda fotoeffekt hodisasi aniqlandi, 1900 yilda yorug'lik bosimi Lebedev tomonidan o'lchandi.

Spektr: "Yung yorug'lik interferensiyasi hodisasini tajribada o'rgandi", bu yorug'likning to'lin ekanligini tasdiqlaydi. Yung yorug'lik to'linining ko'ndalang ekanligini isbotladi. 1846 yilda Faradey yorug'lik hodisalarini bilan elektromagnit hodisalar orasida bog'liqlik borligini topdi. Maksvell nazariy tadqiqotlari bilan yorug'likning elektromagnit to'lin ekanligini ochdi.


Bahsni shu joyda to'xtatgan holda shunday xulosaga keldikki, yorug'lik ham to'lin, ham zarracha xususiyatiga ega elektromagnit to'lin ekan. Yorug'likning qaytishi, sinishi, nurlanishi, yutilishi zarracha ekanligini isbotlasa, yorug'likning difraksiyasi, interferensiyasi, qutblanishi kabi hodisalar uning to'lin xususiyatiga ega ekanligini isbotlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida lazerlar yaratilgandan so'ng, yorug'lik bir vaqtning o'zida ham zarracha ham to'lin ekanligi isbotlandi.

Bahsning oxirida "Spektr" va "Kvant" guruhidagi talabalar betaraflarga qo'shilganliklarini e'lon qiladilar.

Ko'rinib turibdiki, talabalar o'zlari o'quv jarayonining faol ishtirokchilari bo'lib, ko'plab ma'lumotlarni keltirdilar, o'z navbatida o'zlashtirdilar [2].


O'quv jarayonida mavzuni mustahkamlashda ham innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samarali bo'ladi. Masalan, "Venn diagrammasi". "Venn diagrammasi" grafik organayzeri talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishda yo'naltirilgan. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka bo'linadi va har bir bo'lakka mavzuga aloqador kattaliklarni yozib chiqadilar (Astronomiya fanidan "Quyosh sistemasidagi Merkuriy va Venera sayyoralari" mavzusi yuzasidan):



Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samarali bo'ladi. Uni qo'llash bosqichlari yuqoridagi sxemada keltirilgan va talabalar quyidagi jadvalga o'z javoblarini keltiradilar:

GURUHLAR	DIAGRAMMANING TARTIB RAQAMI	TOPSHIRIQLAR MAZMUNI
1-GURUH	1-diagramma	Atmosfera kam, o'z o'qi atrofida sekin aylanadi
	2-diagramma	Atmosfera zich, Quyosh atrofida tez aylanadi
	3-diagramma	Tabiiy yo'ldoshi yo'q
2-GURUH	1-diagramma	Tabiiy yo'ldoshi yo'q, biosferasi yo'q
	2-diagramma	Tabiiy yo'ldoshi yo'q, zichligi katta
	3-diagramma	Biosferasi yo'q
3-GURUH	1-diagramma	Zichligi kata
	2-diagramma	O'qi atrofida juda sekin aylanadi
	3-diagramma	Quyosh atrofida tez aylanadi
4-GURUH	1-diagramma	Quyosh atrofida tez aylanadi
	2-diagramma	Biosferasi yo'q
	3-diagramma	Zichligi katta

Dars yakunida talabalar quyida keltirilgan 2 ta keshishgan ellipsdan iborat diagrammada sayyoralaragi o'xshashliklarni topib, fikr yuritadilar.



O'quv jarayonida materialni takrorlashda ham samarador innovatsion ta'lim texnologiyalaridan fodalanish mumkin. Talabalarning harakat ketma-ketligini no'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, fan bo'yicha xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olishni shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olishni ta'minlovchi **"Blits-so'rov"** metodini qo'llash ham samara beradi. Blits-so'rov (inglizcha "blits" – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, lo'nda va aniq javob qaytarilishini taqozo etadi. Ushbu metodga muvofiq savollar o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik va yakka tarzda qaytarilishi mumkin.

Masalan, talabalardan Sayyoralarining Quyoshdan uzoqligiga qarab joylashish tartibini belgilash talab etilgan bo'lsin. Buning uchun o'qituvchi talabalarning har biriga tarqatma material beradi va uni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi. Shundan so'ng o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, javobni quyidagi jadvalga kiritishlarini so'raydi:

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka Baho	Harakatlar ketma-ketligi
5	+	5	-	6	Yupiter
6	+	6	-	5	Saturn
1	+	1	+	1	Merkuriy
2	+	2	+	2	Venera
8	-	7	+	7	Uran
7	-	8	-	4	Neptun
3	+	3	+	3	Yer
4	+	4	-	8	Mars

Baholash: 8 ta to'g'ri javob – a'lo;
6-7 ta to'g'ri javob – yaxshi;
4-5 ta to'g'ri javob – qoniqarli.

Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan yozma yoki tasvir tarzida yoritilishi mumkin, chunki bu ham ularning mustaqil izlanishlarini baholashda zarur vosita hisoblaniladi [3].

Talabalarning bilimlarini tahlil etishda, ya'ni ularning fanning muayyan bo'limi yoki mavzusi bo'yicha egallagan bilimlarini sinovdan o'tkazishda ham innovatsion ta'limning SWOT-tahlil metodidan foydalanish yuqori natijalar olishni kasb etadi. SWOT-tahlil metodini ham Astronomiya fanidan "Yer sayyorasi" mavzusi bo'yicha olingan bilimlarni tahlil etishda qo'llaymiz:

Talabalarning astronomiyadan "Yer sayyorasi" mavzusi bo'yicha olgan bilimlarining SWOT-tahlili natijalari:

S – (strength) – kuchli tomonlari	W – (weakness) – zaif tomonlari
- Yer sayyorasida biosfera qatlamining mavjudligi, boshqa hech bir sayyora biosfera qatlamiga ega emas; - Yer sayyorasida gidrosfera qatlami mavjudligi, boshqa hech bir sayyora gidrosfera qatlamiga ega emas; - iqlimining biosfera mavjudligini ta'minlash xususiyatiga egaligi, ya'ni ob-havoning sutkalik keskin emasligi; - atmosferasida kislorod muvozanatini tabiiy saqlanishi va h.k.	- yer maydonining boshqa gigant sayyoralariga nisbatan kamligi; - umumiy yer maydonining 70,2% gidrosfera bilan qoplanganligi; - tabiiy boyliklar zahirasining kamligi va chegaralanganligi; - yer maydonining barcha hududlarida suv zahiralari (daryo, ko'l) ning tekis taqsimlanmaganligi.

O – (opportunitu) – imkoniyatlari	T – (tnreat) – tahdid
- xalq xo'jaligi turli sohalarini yanada rivojlantirish va tashkil etish bo'yicha imkoniyatlarning mavjudligi; - tabiiy hodisalardan (shamol kuchi, vulqon lavasidan) iqtisodiyot uchun foydali yo'nalishda (energiya olishda) ishlatishning mumkinligi va h.k.	- kuchli tabiiy ofatlarning mavjudligi, ya'ni zilzila va vulqon otilishlarining sodir bo'lishi; - atmosferasida kuchli shamollarning turli ofatlarni olib kelishi; - kuchli tabiiy va antropogen ta'sirning inson hayotiga zomin bo'lishi va h.k.

Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan o'quv jarayonidagi baholashda ham foydalanish yuqori samara beradi. Ta'lim innovatsiyalari-muammoni yangicha yechish maqsadida qo'llanilib, oldingisidan ancha samarali natijani kafolatlaydigan shakl, metod va texnologiyalardir. Innovatsiyalar boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, balki talabalar o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqbuldir. Bularga **"Oquv portfoliosi"** va **"Assesment"** misol bo'la oladi. Zamonaviy ta'limda talabaning o'quv faoliyatini mazmunan takomillashtirish, faoliyati sifatini ma'lum ko'rsatkichlar asosida yetarlicha, xolis baholashga nisbatan ehtiyoj kuchaymoqda. **Portfolio** talabaning faoliyatiga bilvosita baho berish, qay darajada sifatli va samarali ekanligini tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Portfolio talabalarga ularning shaxsi, faoliyati bilan turli tekshiruvlar jarayonida komissiya a'zolarini bilvosita tanishish imkonini beradi.

Mohiyatiga ko'ra o'quv portfoliolarini bir necha turga bo'linadi. Ular

1. Hujjatlar portfoliosi (bunda talabaning individual ta'limiy muvaffaqiyatlarini aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq va boshqalar);
 2. Ishlar portfoliosi (bunda talabaning ijodiy ishlari, loyihalari, natijalarni qayd etuvchi reyting daftarcha va boshqalar);
 3. Natijalar portfoliosi (bunda talabaning jamlangan eng yaxshi ishlari o'rin oladi);
 4. Baholovchi portfolio (u talabaning bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun shakllantiriladi);
- Taqrizlar portfoliosi (bunda talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, tavsiyanoma va tavsifnomalar joylashtiriladi);
- On-layn portfolio (bunda talaba tomonidan institut yoki fakultet saytiga materiallar qo'shishi, shaxsiy veb-saytlarni yaratishi kabilar kiradi).

Quyidagi holatlarda talabalar tomonidan portfoliolarning shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir: 1. Istiqbolli ish o'rniga ega bo'lishda, 2. Ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, 3. Fan olimpiadalarida ishtirok etishda, 4. Nomdor va Prezident stipendiyalariga talabgor bo'lishda.

"Assesment" inglizcha so'z bo'lib, "baho", "baholash" ma'nosini bildiradi. Assesment texnologiyasi talabalarning, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografiy anketasi, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, bahs-munozara, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot kabildan tashkil topadi. Assesmentning yana bir ijodiy tomoni shundaki, talabani bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy tomondan baholash mumkin. Buni Astronomiyadan "Yer sayyorasi" mavzusini o'rganishda qo'llaymiz:

Testlar Yer sayyorasi uchun ekvatorial radiusi necha km.ga teng A) 6357 B) 6371 C) 6378 D) 6400 Yer atmosferasi necha qatlamlardan iborat A) 3 B) 5 C) 4 D) 8	Muammoli vaziyat Yer atmosferasining Ozonosfera qatlami nega yemirilyapti? Yerda nega Toza suv muammosi paydo bo'lyapti?
Tayanch iboralar Quyosh, uchinchi sayyora, orbita, yo'l, ellips, atmosfera, gidrosfera, litosfera, ozonosfera, mantiya, yadro, o'g'irlik kuchi, bosim, harorat, yuqori harorat, past harorat, erkin tushish tezlanishi	Amaliy ko'nikma Yer uchun 1-kosmik tezlik formulasini keltirib chiqaring; Yer uchun 2-kosmik tezlik formulasini keltirib chiqaring; O'g'irlik kuchi formulasini yozing.

Professor-o'qituvchi tomonidan fanning xususiyati va mashg'ulotning shakliga ko'ra innovation ta'lim texnologiyasini to'g'ri tanlashi, uni

Adabiyotlar

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: «Fan», 2006.
2. Ishmukamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. -Toshkent: «Nihol», 2013.
3. Kamolov I.R. «Oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonlariga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish» mavzusidagi bitiruv ishi. -Toshkent: 2015.

REZYUME

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ravnaqi bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish professor-o'qituvchidan metodik tayyorgarlik, innovatsion pedagogik faoliyatga moslik zaruratini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarni joriy etish zamon talabidir. Ilmiy maqolaning asosiy maqsadi sifatida "Oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonlariga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning samarali yo'llarini yoritish va tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish" ko'zda tutilgan va maqsadga erishilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящается вопросам применения инновационных образовательных технологий в учебном процессе вузов. Социальное и экономическое развитие нашей Республики во многом зависит от эффективности применения инновационных образовательных технологий в учебном процессе в высших учебных заведениях. Применение инновационных образовательных технологий профессорско-преподавательским составом требует методической подготовки и является необходимостью сегодняшнего дня.

SUMMARY

The article is devoted to the issues of using innovational educational technologies in the studying process at higher educational institutions. Social and economic development of our Republic depends on efficiency of using innovation educational technologies in teaching process in high educational institutions. Using innovation educational technology by professors and teachers requires methodical preparation and is one of the actual issues today.

КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

З.Курбамуратова - катта ўқитувчи

ҚРХТХҚТва УМОИ

Таянч сўзлар: тарбиявий таъсир, анатомик - физиологик хусусиятлари, психик камолотнинг даражаси, жисмоний камолот даражаси, суҳбатлар ўтказиш, ёш ва психологик хусусиятлари, ўқитувчи шахсига ишонч ҳисси, назарий билимлари, амалий билимлари, ихтиёрсиз диққат, ихтиёрий диққат, сўз мантиқ хотираси, идрок қилиш.

Ключевые слова: влияние воспитания, анатомо-физиологические особенности, уровень психологического развития, физическое развитие, беседа, возрастные и психологические особенности, доверие к личности учителя, теоретические знания, практические знания, непроизвольное внимание, произвольное внимание, словесно-логическая память, восприятие.

Key words: influence of education, anatomical and physiological characteristics, the level of psychological development, physical development, conversation, age and psychological characteristics, confidence and personality of the teacher, the theoretical knowledge, practical knowledge, involuntary attention, voluntary attention, verbal and logical memory, perception.

Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» бошланғич синф ўқувчиларига уларнинг ларёкатлари ва билиш имкониятларини ривожлантириш асосида таълим беришни назарда тутди. Жумладан, «таълимнинг бу тури бошланғич таълимни (1-4 синфлар) камраб олади ҳамда ўқувчиларнинг фанлар асослари бўйича мунтазам билим олишларини, уларда билим ўзлаштириш эҳтиёжини, асосий ўқув- илмий ва умум маданий билимларини, миллий ва умумбашарий кадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилятларини, меҳнат кўникмаларини, ижодий фикрлаш ва атроф муҳитга онгли муносабатда бўлишни ва касб танлаш- ни шакллантиради» - деб таъкидланган [1:46-47].

Бу ўз навбатида мактабда таълим - тарбия ишларини ташкил қилишда кичик мактаб ёшидаги болаларнинг анатомик - физиологик хусусиятлари, жисмоний камолот даражасини ҳисобга олиш муваффақият гаровидир.

Ўқитувчининг ўқувчилар билан мазмунли суҳбатлар ўтказиш, уларни ғаройиботлар оламига олиб кириши, фоол-лик сари етаклаши алоҳида аҳамият касб этади. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ахлоқий сифатларини ривожлантиришда қўзланган мақсадга эришиш учун уларнинг ёши ва психологик хусусиятларини ҳисобга олиш шарт.

Ўқининг дастлабки куниданоқ кичик мактаб ёшидаги боланинг ўсишини ҳаракатга келтирадиган турли зиддият, қарама-қаршиликлар, ички илтифотлар вужудга келади. Агар шулар замирида боладаги психик камолотнинг даражаси ва ижобий хислатлар билан талаблар ўртасидаги қарама - қаршиликлар ётади. Талабларнинг тобора ортиши боланинг психик жиҳатдан тўхтовсиз ўсишини такозо этади ва шу берк занжирнинг узлуксиз ҳаракати натижасида инсоннинг камолоти амалга ошади.

қо'llashi, o'tilayotgan har bir oquv mashg'uloti nafaqat ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan bo'lishi, balki individual texnologiyalar bilan ham boyitilishi zarur. Ana shunda, innovatsion ta'lim texnologiyasi va ularning ta'limga qo'llanishiga oid bilimlar, tajribalar talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Pedagogik ta'lim innovatsiyalarini pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishiga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. Professor-o'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiradi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi.

Хиссиёт-шахснинг воқеликдаги нарсаси ва ходисалар, кишилар ҳамда ўз-ўзига бўлган муносабатларидан келиб чиқадиган кечинмаларидир. Ўқувчиларнинг хис-туйғулари, кечинмалари, эҳтиёжлари уларнинг интеллектуал фаолиятлари орқали намоён бўлади.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг муҳим хусусиятларидан бири улардаги ўқитувчи шахсига ишонч ҳисси ва юксак эҳтиромидир. Шунинг учун ҳам ўқитувчининг болага тарбиявий таъсир кўрсатиш имконияти жуда каттадир. Бола ўқитувчини ақлу идрок соҳиб, зийрак, сезир, меҳрибон, ҳатто, донишманд инсон деб билади. Ўқитувчи сиймосида ўзининг эзгу нияти, орзу-истаги, ажойиб хис-туйғуларини рўёбга чиқарувчи мўътабар шахсни кўради. Ўқитувчининг обрўси олдида ота-оналар, оиланинг бошқа аъзолари, қариндош-уруғлар, таниш - билишларининг нуфузи кескин пасаяди. Шу сабабли болалар ўқитувчининг ҳар бир сўзини қонун сифатида қабул қиладилар [2:167].

Мақсадга мувофиқ ўқиш фоалияти кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ақл-идроки, сезирлиги, кузатувчанлиги, эсда қолиш, эсга тушириш имкониятларини ривожлантириш учун муҳим шарт - шароитлар яратади, болаларда ўқиш, ёзиш, ҳисоблаш малакаларини шакллантиради.

Таълим жараёнида кичик мактаб ёшидаги ўқувчининг идрок мақсадга мувофиқ перспектив фаолиятга айланиб ва тобора мураккаблашиб боради, натижада ўқувчида кузатиш, назорат қилиш, фарқлаш имконияти ошади. Шу сабабли биринчи синфда сўз бирор нарсани аташ билан чегараланган бўлса, кейинчалик у ўрганилаётган объектнинг умумий маъносини аңлата бошлайди.

Таълим жараёнида ва катталарнинг ёрдами билан турмуш тажрибасининг ортиши туфайли болаларда фазо, вақт